



BUYRUQ

Olmalik sh.

2023 y. "14" 02

№ 01/9-05-20

**Shartnomalar tuzish bo'yicha
Xarid komissiya a'zolari tarkibini
tuzish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 684-son Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, PQ-3953-son va 2021-yil 2-iyuldagi O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" PQ-5171-son qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida

BUYURAMAN

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 24-iyuldagi 684-sonli "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonuniga asosan, shartnomalar tuzish uchun komissiya tuzilsin va komissiya a'zolari etib quyidagi xodimlar tasdiqlansin.

№	F.I.O	Lavozimi	Komissiyadagi o'rni
1	A.Samadov	Filial direktori	Komissiya raisi
2	B.Suttibayev	Ishlar boshqarmasi boshlig'i	Rais o'rinbosari
3	S.O'sarov	Yuriskonsult	a'zo
4	D.Dadajonova	Reja-moliya bo'limi boshlig'i	a'zo
5	E.Shukurov	Bosh hisobchi	a'zo
6	I.Raxmatullayev	Bosh muxandis	a'zo
7	F.Isayev	Korrupsiyaga qarshi "Komplaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i	a'zo
8	B.Xoshimov	Xarid bo'yicha bosh mutaxassis	Komissiya kotibi

Har bir komissiya a'zosining vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

1.Filial ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan tovar, ish va xizmatlar yuzasidan o'tkaziladigan majlislarda qatnashish;

2.Elektron davlat xaridlari maxsus portalida xarid jarayonida ishtirok etishi uchun Elektron raqamli imzo olish;

3.Filial ehtiyoji uchun tovar (ish, xizmat)larni xarid qilishga berilgan talabnomalarni asosliligini o'rganib chiqish va xulosa berish;

4.Komissiya yig'ilishida talabnomalar bo'yicha tovar (ish, xizmat)lar yetkazib beruvchi yoki pudratchilar o'rtasida eng arzon, hamda sifatli tovar (ish, xizmat)larni taklif etganlarini o'rganib chiqib, shaxsiy elektron imzo orqali mustaqil ravishda shartnomani tuzish yuzasidan xulosa berish va qaror qabul qilish;

5.Filial direktorining 2021-yil 25-noyabrdagi "Shartnomalar tuzish bo'yicha komissiya a'zolari tarkibini tashkil etish to'g'risida"gi 455-son buyrug'i bekor qilinsin.

Asos: O`zbekiston Respublikasining 2021-yil 24-iyuldagi 684-sonli "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonuni.

Direktor



A.Samadov